



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna¹

¹Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи dotsenti

Elektron pochta: anorgul70@gmail.com

Tel: 901282504

XORAZM VOHASIDAGI ETNOTOPONIMLARNING ATALISH MOTIVLARIGA KO‘RA TURLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta'lif muassasalarida uzlusiz ma'naviy tarbiyani tashkil etish ishlarini yuqori bosqichga ko'tarishda ta'lif tizimiga yangicha yondashuvni shakllantirish kabi masalalar o'rganilgan. Shuningdek, ma'naviy tarbiya sohasidagi ishlar samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish zarurligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: uzlusiz ma'naviy tarbiya, zamonaviy pedagogika, axloqiy kamolot, tarbiya Konsepsiysi, tayanch kompetensiya, tashabbuskorlik, uzlusizlik tamoyili.

ВИДЫ ЭТНОТОПОНИМОВ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА ПО МОТИВАМ НАИМЕНОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье речь идёт об этапах формирования системы собственных имён существительных узбекского языка, истории происхождения географических названий, своеобразных особенностях



Хорезмских этнотопонимов, а также о видах этнонимов по мотивам наименования.

Ключевые слова: система собственных имён существительных, этнотопоним, этническое название, тотем, печать, антропоним, этимон.

TYPES OF ETHNOTOPONYMS IN THE KHOREZM OAS ACCORDING TO NAMES

Annotation. This article discusses the stages of formation of the system of nouns in Uzbek language, the history of place names, the peculiarities of Khorezm ethnotoponyms, the types of ethnonyms according to the motives of naming.

Keywords: Proper nouns system, ethnotponym, ethnic name, totem, logo, anthroponym, etymology.

Kirish. Ma'lumki, joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat tarixida bo'lib o'tgan voqyea va hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan.

Toponimikani o'rganish til tarixi va til nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimiyyidir. Ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug'at tarkibida, so'zlarining dastlabki shaklida ro'y bergan o'zgarishlarni bilib olish mumkin.

Etnonim va etnotoponimlarni to'plab tadqiq etish o'zbek tilidagi atoqli otlar tizimining shakllanish bosqichlari xususida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, xalqimiz tarixi, urf-odatlari, turmush tarzi, o'lkamiz jug'rofiyasi va arxeologiyasi, shuningdek, ma'naviyatimiz sarchashmalari haqida keng qamrovli izlanishlar olib borishga asos bo'la oladi. Xalqimiz tarixi, taqdiri va turmush tarzining o'ziga xos qomusi hisoblangan joy nomlari ajdodlarimiz tafakkurining bebaho yodgorligi, o'zbek ma'naviyati xazinasini asrlar davomida boyitib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri sanaladi.



Atoqli otlar tizimini etnotoponim materiallari asosida o‘rganish o‘zbek tili tarixi, tarixiy leksikologiyasi va grammaticasining ba’zi muhim masalalarini hal qilishda, shuningdek, o‘zbek xalqining etnik kelib chiqishi, urug‘-qabila silsilasi, urf-odatlari va uning boshqa xalqlar bilan bo‘lgan madaniy-iqtisodiy munosabatlarini yoritishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

O‘zbekistondagi ayrim joy nomlari va etnonimlarning yuzaga kelish tarixi, qanday ma’no anglatishi, xalqimiz tarixining qaysi davrida, kimlar tomonidan, qachon va qay tarzda yaratilganligi haqidagi g‘oyat qiziqarli ma'lumotlar Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Narshahiy, Ibn Batuta, Hofiz Abro‘, Muhammad Haydar, Hofiz Tanish Buxoriy, Rashididdin, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘oziy Bahodirxon kabi olim, muarrix va adiblarning asarlarida mavjuddir. Ayniqsa, qadimgi Xorazm vohasida yashovchi xalqlar tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ma’naviy madaniyati, tili, yozuvi, urf-odati va turmush tarzi haqidagi qimmatli ma'lumotlar qadimgi arab, chin, yunon, lotin, arman manbalarida, Sharq (shu jumladan Markaziy Osiyo) mamlakatlari sayyoh va muarrixlarining asarlarida, shuningdek, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham o‘z aksini topgan.

Xorazm etnonimlari va etnotoponimlarini o‘rganishda Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” singari asarlari ham tarixiy-etnografik dalillarga boy ishonchli manba bo‘la oladi. Ushbu asarlarda turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar hamda afsona va rivoyatlar mavjud. Ayniqsa, etnonimiyaiga oid ma'lumotlar taniqli tilshunos X.Doniyorov tomonidan batafsil tahlil qilingan [1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbek etnonimiysi va etnotoponimlarining tadqiqi, etnotoponim tushunchasining paydo bo‘lishi va uning ilmiy talqin hamda tahlillari o‘zbek toponimiysi bo‘yicha yozilgan nomzodlik dissertatsiyalarida, shuningdek, o‘sha asosda e’lon qilingan ilmiy ishlarda mavjuddir. Xususan, T.Nafasovning toponimiyaiga oid ilmiy ishlarda etnotoponimlarning ma’nosи, ularning paydo bo‘lishi va etimologiyasi kabi



masalalarga katta e'tibor berilgan. Etnonim va etnotoponimga oid ilmiy tahlillar o'zbekistonlik olimlarning nomzodlik va doktorlik ishlarida ko'plab uchraydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Etnik nomlar til lug'at tarkibidagi eng qadimiyo so'zlar hisoblanadi. Etnik guruhlarni nomlash mezonlari turlicha bo'lган. S.Ataniyazov, T.Nafasov kabi olimlarning ishlarida ham shu masalaga doir qiziqarli kuzatishlar mavjud. Biz Xorazm vohasidagi etnonimlarni paydo bo'lish mezonlariga ko'ra quyidagicha tasnifladik.

1. Totemlar asosida yuzaga kelgan etnonimlar.

Ibtidoiy urug'chilik tuzumi davrida qadimgi odamlar tomonidan mo'tabarlashtirilgan hayvon, o'simlik, muayyan narsa yoki hodisa totem hisoblangan. Ayrim urug' va qabila nomlari ana shu totemlardan yuzaga kelgan. Ba'zi uy hayvonlari ham totem sifatida e'tirof etilgan. Masalan, turkmanlarda akkoyunlu va kara koyunlu (ya'ni "oq qo'y" va "qora qo'y", teke "taka", turk urug'-qabilalari silsilasida aksiyaligylary (oq sigirli), kara-atly (qora otli) qabilalari tizimida sarly-kechili (sariq echkili), kara-tekel (qora takali) kabi urug' nomlari bor [2].

Xorazmda kiyikchi, qarg'a, taylaq (bo'taloq), kirpi, bo'ri, bahrin, tuyachi kabi etnonimlar mavjud bo'lib, ular ham totem sifatida muqaddaslashtirilgan jonivorlar nomini anglatuvchi so'z asosida yuzaga kelgan.

2. Tamg'a va belgi asosida yuzaga kelgan etnonimlar.

Ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Har bir urug' yoki qabilaning o'z maxsus tamg'asi bo'lган. Mahmud Koshg'ariy 22 o'g'uz qabilasi haqida shunday deb yozgan edi: "... ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordirkim, urug'larni shu tamg'alariga qarab ayiradilar" [3]. Masalan, ular o'z mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg'alab qo'yishgan. Keyinchalik ana shu tamg'a belgilari ko'p holda mazkur etnik guruh uchun nom bo'lib qolaverган.

Xorazmda uchraydigan quyidagi etnonimlar tamg'a belgisini anglatuvchi nom asosida paydo bo'lган: baymaqlы, ilanлы, syrg'алы, chag'anaqlы, postыnlы, balg'алы va b.

3. Rang-sifat bildiruvchi so'zlardan yasalgan etnonimlar.



Ko‘pgina etnonimlar rang bildiruvchi so‘zlar asosida yuzaga kelgan. Xorazmda mavjud bo‘lgan quyidagi etnonimlar ana shunday yasalgan: aqmang‘ыт, aqnog‘ай, қызылваш, qaraqyrchaq, qaraqulan va b. Bunday nomlar tarkibidagi rang bildiruvchi so‘zlarning ma'nolari xususida ko‘pgina fikrlar mavjud. Tekshirishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, toponimlar va etnonimlar tarkibidagi rang bildiruvchi so‘zlarning ma'nolari o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Shuning uchun ham biz faqat etnonimlarga gagina xos bo‘lgan rang ifodalovchi so‘zlar haqida fikr yuritamiz.

K.Sh.Shoniyozov qora, qizil, ko‘k, sariq, oq kabi etnik nomlarning tasodifan yuzaga kelmaganligini aytib, quyidagilarni yozadi: “Qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar shimol, janub, sharq, g‘arbni ranglar nomi bilan ataganlar. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko‘k rang sharqni, oq rang g‘arbni, sariq rang markazni ifodalagan. Ma'lum bir qabila ittifoqida bo‘lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o‘tishi bilan tomon nomlari (rang nomlari) etnonim bo‘lib qolgan[4].

Xorazmda ko‘pgina etnonimlar “qora” so‘zini qo‘sish orqali yasalgan: qaraxytay, qaramang‘ыт, qaraqoyly kabi. Z.Do‘simov bu nomlardagi qora komponenti ko‘plik ma'nosida qo‘llanganligini va Xorazm shevasida qora so‘zining mana shu ma'nosini uchrashini aytadi: qarachibinday basdi, qara qumyrsqa qanday bo‘sса shunday [5]. Haqiqatan ham Xorazmda qora so‘zining ko‘plik ma'nosini bor. Masalan, “qara dar basды” (qora ter bosdi), “qara meynat atadi” (qora mehnat qiladi) deganda ham qora so‘zining kuchaytirish ma'nolari mavjud. Bizning fikrimizcha, qora so‘zida ifodalangan ko‘plik ma'nosining nomlarga aloqasi yo‘q.

4. Miqdor bildiruvchi so‘zlarga asoslangan etnonimlar.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, qadimda urug‘-qabilalarning miqdori ularning boshqa qavmlar o‘rtasida tutgan o‘rni va o‘z mavqyeini belgilashiga asos bo‘lgan. Boshqacha aytganda urug‘-qabilalarning jamiyatdagi o‘rni ana shu xususiyatiga ko‘ra belgilangan. Shuning uchun etnik nomlarning ayrimlari miqdor bildiruvchi so‘zlardan tashkil topgan. Xorazmda mavjud bo‘lgan



ming, yuz, qirq, beshqo`y, birg`ulaq, minbag`alan kabi etnonimlar shu tarzda shakllangan. Shuningdek, mang`it, nayman, do`rman kabi etnonimlarning etimoni bilan qiziqib ko`rganimizda, ularning asosida ham son-miqdor tushunchasi yotganligining guvohi bo`ldik.

5. Antroponomlarga asoslangan etnonimlar.

Xorazm vohasida uchraydigan bir qator etnonimlar zamirida kishi ismlari va laqablari mavjudligi kuzatildi. Laqablarning etnonimga aylanish qonuniyatlarini o`rganish shuni ko`rsatdiki, sof laqablar, ya`ni bevosa kishilar ismlari bilan birga ism o`rnida qo`llaniluvchi laqablar to`g`ridan-to`g`ri etnik nomga aylanar ekan. Xorazmda kishi laqablari asosida yuzaga kelgan etnonimlar juda ko`p uchraydi: mangqa (dumog`ida gapiruvchi kishi), avmas (anqov), ko`sса (soqol chiqmaydigan odam), chulak, churrila va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, etnotoponimlar o`zbek tilidagi nomlar tizimining eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Tilshunos V.A.Nikonov etnotoponimlarning paydo bo`lishi xususida shunday degan edi: “Asosida etnonim yotuvchi toponimlar, agar ular o`sha hududda yashamaydigan kishilar tomonidan berilmasa, etnik kelib chiqishida umumiylilik bo`lgan bir xalq yashovchi joylarda yuzaga kelishi mumkin emas. Odatda etnonimlar aholining etnik mansubiyatini farq etuvchi belgi vazifasini bajaradigan joylarda ular etnotoponimga aylanadi.

Demak, faqat bir uruqqa mansub kishilar yashaydigan joyda hyech qachon etnotoponim vujudga kelmaydi. Etnotoponimlar ko`pincha ikki qabila yonma-yon yashaydigan chegara hududlarida ko`proq uchraydi. Z.Do`simovning aniqlashicha, faqat o`zbeklarga yashaydigan hududda hyech qachon o`zbek qishloq deb yuritiluvchi joy bo`lmaydi. Aksincha, bu yerga ko`chib kelgan boshqa bir urug` yoki qabilaning xarakterli xususiyati nom uchun asos bo`lishi mumkin. Demak, etnotoponimlar hamma joylarda ham yuzaga kelavermaydi, ular turli urug`-qabilalar yonma-yon yashagan joydagina vujudga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. –T.: Fan, 1968. 14-35-b.
2. Еремеев Д.Е. К семантике тюркской этнонимии //Этнонимы. –М., 1970. С139.
3. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. T.:O‘zSSR Fanlar Akad.nashr, 1960. I. 89-b.
4. Shoniyo佐 K. Qang‘ dalati va qang‘lilar. –T.: Fan, 1990.145-146-b.
5. Do‘simov Z. Shimoliy Xorazm toponimlari: Filol.fanlari nomzodi...dis. T.,1970.33-b.